

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13256342>

Tilovov Korjov Bekboyevich

Termiz davlat pedagogika instituti pedagogika fakulteti tyutori

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Sohibqiron Amir Temur davlatining ijtimoiy-iqtisodiy hayotida Temur va Temuriy malikalarning hayot tarzi haqida ma'lumot berilgan.*

Kalit so'zlar: *ijtimoiy tarkib, hokik va dorug'a, tarixchilar malikalar haqida, O'rta asr Sharq davlatlarida ijtimoiylashuv.*

Amir Temur va Temuriylar saltanatidagi ijtimoiy tarkib, ma'murlarni turlicha atamalar bilan ifodalangan. Masalan, hokim, dorug'a, navkar, chuhra, bakovul, bovurchi, oftobachi, chig'ovul, hojib, eshikog'a, sayislar, rikobdor, nog'orachi, qushbegi va shunga o'xshashlar. Har bir shaxs, ijtimoiy guruh, jamiyat ijtimoiy tarkibida o'z o'rniga ega bo'ladi. Biz ana shu ijtimoiy tarkib – ma'murlar to'g'risida imkon qadar batafsilroq so'z yuritmoqchimiz. Yuqoridagi ma'murlarning ko'pchiligi "Temur tuzuklari"da ham tilga olinadi. Biz ularni ixchamgina jamlashga jazm etdik. Temur qurmoqchi bo'lgan mukammal jamiyatni shoh eng ishonarli vazirlar yordamida amalga oshirilishi mumkin va shuning uchun ham u o'z ishonchli va e'tiborli kishilari bo'lgan vazirlarga katta e'tibor berishni ta'kidlagan. Temur fikricha, podshoh vazirlarni tanlashda adashmasligi kerak. Shoh asosan to'rt sifatga ega bo'lgan kishilarni o'ziga vazir etib tayinlashi mumkin: birinchisi – asllik, ikkinchisi – aql-farosatlilik, uchinchisi – sipohu raiyat ahvolidan xabardorlik, ularga nisbatan xushmuomila bo'lishlik, to'rtinchisi – sabr chidamlilik va tinchliksevarlilik. Temurning maslahat berishicha bunday sifatga ega bo'lgan kishilarni faqatgina vazir etib tayinlash emas, balki, davlatning u yoki bu tarmoq ishlari uchun maslahat etib tayinlash mumkin. Saltanatdagi har bir shahar yoki o'lkaning ishlari hokim va dorug'aga yuklatilgan bo'lib, aslida bu unvonlar ma'no jihatidan bir xil, ya'ni ma'nodosh, sinonim so'zlar bo'lib, ular, odatda bitta ma'muriyatni boshqargan kishiga nisbatan ishlatilgan. Dorug'atlar, asosan huquqiy, mahkama ishlarini yuritishgan, zarur hollarda mamlakatning askari bilan urushga borgan, favqulotda holatlarda soliq yig'ishga ham yuborilgan. Har qanday mamalakatning qudrati, salohiyati o'zining boy tarixiy merosi bilan chanbarchas bog'liq. Tarix kitoblarini varaqlar ekanmiz, Temur va temuriy hukmdorlar ushbu kitobning talay qismini egallaydi. Biz Amir Temur va uning avlodlari haqida bir qancha ma'lumotga egamiz. Temur va Temuriy shahzodalar IV asrning ikkinchi yarimidan VI asrning birinchi choragigacha o'z hukmronligini olib borganlar. Shahzodalar singari temuriylar sulolasiga mansub malikalar orasida ham iste'dodli siyosatdon, suxandon, yetuk olima va xassos shoirlar yetishib chiqqan. Ular tarix zarvaraqlarida o'zlaridan o'chmas iz qoldirganlar. (Fayziyev T,1994,1-bet)

Tarixiy romanlarda ayollar obrazi juda ko'p uchraydi. Ayniqsa Temuriy malikalar obrozi ham salmoqli. Xususan, Shahodat Isoxonovaning "Bibixonim" tarixiy romanida Bibixonim va malikalar Tuman Og'ο, Ruhparvar Og'ο va kichik xonim To'kalxonim va Shod Mulkxonim hayotining yulduzli onlari barobarida qismat-u qadarning turli jilvalari va ayanchli evrilishlari aks etgan. "Gavharshodbegim" tarixiy romanida esa malikaning baxt-u baxtsizliklarga, quvonch-u qayg'ularga qorishiq hayoti haqida hikoya qilinadi. Pirmqul Qodirovning "Ona lochin vidosi" romanida Gavharshodbegim obrazining ziddiyatga to'la hayoti, Risolat Haydarovanning "Javzo" tarixiy romanida Qorako'zbekim obrazlarining ruhiy kechinmalari tasvirlangan.

Tarixchi Sharafuddin Ali Yazdiyning yozishicha, Shod Mulk Xotun Samarqand shahrining quyi tabaqasiga mansub hunarmand oilasida dunyoga keladi. Amir Temurning suyuqli nabirasi Xalil Sulton Mirzo (Mironshoh Mirzoning o'g'li, 1366-1408) kunlardan bir kun shahar chetidagi bog' ko'chadan otda o'tib ketayotib, Shod Mulkka ko'zi tushadi va uni sevib qoladi. (Fayziyev T, 1994,11-bet) Amir Temur vafotidan so'ng, taxtni egallash, Temur vasiyatiga ko'ra Pirmuhammad Mirzo egallashi lozim edi. Lekin shahzoda uzoqdaligidan foydalangan ig'vogarlar Xalil Sultonni taxtga o'tkazishga musharraf bo'ldi. "Bibixonim" romani boshlanishida o'quvchi yulduzi birdan balqqan Shodmulk va Temurning bevasi Tuman Og'ο bilan Sohibqiron shu ayoli uchun qurdirgan bog'ga kirishadi. Birdan "Babu" degan o'rgatilgan g'aroyib maymunchaga duch kelamiz. Shod Mulk bular endi bari meniki deb o'ylaydi, o'zini buyuk saltanat malikasi deb sezadi. (Isaxonova Sh, 2022, 476-bet) Bog'bon kutilmaganda malikaga yoqish uchun, yangi malikaning e'tiborini tortish uchun maymunchani xonimning tillaqoshini olib qochgani uchun bo'g'ib o'ldiradi. Bu maymunni Tuman Og'ο tarbiyalagan , qo'lga o'rgatgan edi. Bog'bon Tuman Og'oning maymunini emas, xuddi o'zini butun saroy xonimlari ko'z o'ngida bo'g'ib o'ldirgandek taassurot qoladi. Maymuncha Shodmulkning chiroyli peshanasini bexos tilib yuboradi. Bu ham uning to'satdan balqigan yulduzi ko'p o'tmay fojiali so'nishidan bir ramz yanglig' darak beradi. Xalil Sulton taxtga o'tirgandan so'ng, davlatni adolatli boshqarmoqchi bo'ladi. Lekin xotini Shodmulk begimning saltanat ishlariga faol aralashuvi natijasi o'laroq, arkoni davlat orasida ayrim noroziliklarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Shodmulk begim Temurning barcha beva xotinlari-yu xos kanizaklarini harbiy boshliqlar va amaldorlarga in'om qilish haqida Xalil Sulton Mirzoga maslahat berib, uni ko'ndiradi. Jumladan, 1406-yilda Temurning beva xotini Tuman Og'ο begimni amir Shayx Nuriddinga xotinlikka beradi. Ibn Arabshohning yozishicha, Saroy Mulk xonim bilanTukal xonimlarni Shodmulk begimning maxfiy buyrug'iga binoan zaharlab o'ldirganlar. Temur davridagi bek va amaldorlarga yetarli iltifot ham ko'rsatilmaydi.Bu saroyda ko'pgina noroziliklarni keltirib chiqaradi. Natijada Shohruh Mirzo bilan Xalil Sulton orasida taxt uchun kurash boshlanadi. Sohibqiron taxti Shohruhga nasib qiladi. Xalil Sultonni Ray viloyatining hokimi etib tayinlaydi. Oradan biro z vaqt o'tgandan so'ng Xalil Sulton vafot etadi. Shodimulk Xotun ham zahar ichib vafot etadi. Gavharshod begim Amir Temurning to'rtinchi o'g'li Shohruh Mirzoning suyuqli katta xotini edi. U Chig'atoy zodagonlaridan G'iyosiddin Tarxonning qizi edi. Rivoyat qilishlaricha,

G'iyosiddin Tarxonning bobokaloni — Qushlik bir vaqtlar Chingizxon mulozimatida bo'lib, bir jang asnosida uni o'limdan saqlab qolgan ekan. Shundan buyon Chig'atoy ulusida bu avlod yuksak e'tibor va hurmatga sazovar bo'lgan.(Fayziyev T,1994,4-bet) Gavharshodbegim 1379-yilda tug'ilib, 14yoshida Shoxrux Mirzo nikohiga kirgan.Yosh kelin to'y kuni Sohibqiron qaynotasidan oltinsirg'a in'om oladi. Qaynonasi Bibixonim bu sirg'alarni kelinining qulog'iga ta'qib qo'yar ekan. Bu xonadon sohibining gapiga quloq solishi kerakligini ta'kidlaydi. (Qodirov P, 2018, 4-bet) Lekin xonadon egasining gapiga bo'ysunib yashash malikaga onson kechmadi. Begoyimning tole'yiga Shohruh Mirzo faqat qilich chopadigan bahodir yigit emas, balki ilm-u ma'rifatdan xabardor, mutolaani sevadigan,oilaga mehr qo'ygan inson bo'lib chiqdi. Gavharshodbegim xuddi qaynonasi singari Shohruh Mirzo bilan farovonli hayot kechirdi. Shohruh va Gavharshodbegim bir yoqadan bosh chiqarib, hokimyat jilovlarini mahkam tutganliklari, o'g'illarini insof va adolat ruhida tarbiya qilgani uchun to'rt o'g'ildan birortasi bir-biri bilan yovlashgan, ota-onalariga qarshi bosh ko'targan emas. Ammo Shohruh Mirzoning vafotidan keyin temuriy shahzodalar o'zaro taxt talashar edi. Bu konflikt ayniqsa Ulug'bek va Abdulatif o'rtasida keskin davom etadi. Oqibatda saltanat dushmani bo'lgan Abdusayid tomonidan Gavharshodbegim qatl etiladi. Tabiatan vatanparvar, bilimdon va zukko Gavharshodbegim mamlakat ravnaqi yo'lida tinmay g'amxo'rlik qiladi. Malika hayotida madaniy va ma'rifiy hayot birinchi o'rinda bo'lgan. Shu boisdanmi, farzandlari hamda barcha nabiralari ilm-fan muhlislari bo'lib, hatto g'azal ham bitganlar. Alisher Navoiyga ham homiylik qilgan o'rinlari asarlarda uchraydi. Gavharshodbegim Hirotdagi juda ko'p qurilish ishlariga rahnomalik qildi. Uning o'zi ham Hirotda ikkita katta madrasa qurdirgan. O'rta asrda sharq davlatlarida ayollarning davlat boshqaruvida erkaklar bilan tengma teng boshqarishga harakat qilgan.Sharq malikalarning davlat boshqaruvida faol siyosat olib borilganini biz Bibixonim, Gavharshodbegim misolida ko'rishimiz mumkin. Ma'lum bo'ladiki, badiiy adabiyotdagi malikalar obrazi o'z ishtiroki bilan ijtimoiy-ma'naviy hayotning eng muhim masalalarini yuzaga chiqarishda, badiiy g'oya asosini belgilab berishdamuhim obrazlar sirasiga kirishi bilan e'tiborlidir.

Hokimlar va dorug'alarni vazifasiga tayinlanishi va undan ozod qilinishi moliya devonida hal qilingan. Shohrux davrida Hirot poytaxt bo'lganligidan dorug'a, asosan shahar osoyishtaligi bilan shug'ullangan. Hirot hokimi (dorug'asi) avval Shohruxning qarindoshi amir Muhammad Darvesh bo'lgan, u o'lgandan so'ng, 1433 yili uning o'rniga amir Sulton Abusaid tayinlangan. Shu o'rinda amir Alisher Navoiyning ham keyinchalik Astrobod hokimi lavozimida faoliyat ko'rsatganligini aytib o'tish lozim. Ko'proq harbiy ahamiyatga molik yirik shaharlarda dorug'adan tashqari qal'a qo'mondoni sanalgan qutvollar ham bo'lgan. Saroydagi ma'muriyat ijtimoiy tarkibini sanab o'tamiz: hukmdorning arizalar va ulug'beklarning o'z navkarlari va chuhralari bo'lgan. Ular hukmdor, mirza yohud beklar xizmatiga kirib saroyda va harbiy ishlarda qatnashishgan, davlat tizimida katta lavozimlarga ko'tarilishi mumkin bo'lgan. Saroyda oziq-ovqat bilan bog'liq ishlarni quyidagi ma'murlar bajarishgan: bakovul – oziq-ovqatni nazorat qilgan. Bakovuldan keyin bovruchi kelgan

bo'lib, u asosan oshpazlik qilgan (hozirgi bosh oshpaz). Bovurchidan pastroq ma'mur oftobachi bo'lgan, u hukmdor qo'liga suv qo'yib turgan.

Hukmdorning yotog'iga qaraydigan, saflarda chodirini, to'shagini va boshqa narsalarini ko'tarib yuradigan, hukmdorlarning yotish-turishiga ko'z-quloq bo'lib turadigan farroshlar; keldi-ketdilarni kutib oladigan va kuzatib qo'yadigan hamda ular bilan bog'liq ishlarni bajarib yuradigan chig'ovul, hojib, eshikog'aga; ot va oxurlarga qaraydigan sayislarga; yem-xashak, to'rva va boshqa ishlarni boshqaradigan rikobdorlarga; tabexona deb atalgan va unga qaraydigan nog'orachiga bo'lingan. Davr harbiylarining yuksak ma'rifatli vakili bo'lgan Amir Temur musiqa san'atini ahamiyatini ma'naviy omil sifatida chuqur idrok etgan, harbiy musiqa turlari qo'shinlarning jangovar ruhiyatini oliy darajada saqlab turuvchi kuch deb bilgan va uning rivojiga katta e'tibor bergan. U tarixda birinchi bo'lib, askarlarni jangovar bayroqlar va cholg'u asboblari bilan taqdirlash odatini harbiy udumga kiritadi: "Amr qildimki, - deb yozadi "Tuzuklari"da, - qaysi bir amir biron mamlakatni fath etsa, yo g'anim lashkarini yengsa, uni uch narsa bilan mumtoz qilsinlar – faxrli xitob, tug' va nog'ora berib, uni bahodir deb atasinlar"[1.97]. Shunisi e'tiborliki, Amir Temur lashkarida musiqa cholg'ulari faqatgina ma'naviy ramziyot hisoblanmasdan, balki ko'proq harbiy matonat, shijoat nishoni, jangchilarning tabaqa va martabalarini ko'rsatuvchi harbiy daraja belgisini anglatgan. Amir Temurning musiqa san'atini yuqori darajada baholashi, cholg'ulardan harbiy nishon, jasorat ramzi sifatida foydalanishi – jahon muhoraba san'ati tarixida mislsiz voqeadir. Bu xusuda professorlar J.Yaxshilikov va SH.Ahadov o'zlarining "Temuriylar ma'naviyati" asarida "Amir Temur armiyasining harbiy orkestri – puflama va zarbli cholg'ularining xilma-xil turlaridan tashkil topadi. Ularning ko'pchiligi turk hoqonligi, somoniylar, qoraxoniylar va xorazmshohlar davrlarida mashhur bo'lgan. Bunda azaldan Markaziy Osiyoda yaxshi tanish bo'lgan nog'ora zarbli urma asboblari guruhining markazini tashkil qiladi. Ulardan juft naqqora, katta, qozon shaklidagi "ko's naqqora" juda keng qo'llanilgan.

O'rta asrlar miniatyuralaridagi tasvirlarga qaraganda, qo'sh naqqoralar sipohiy sozandalar tomonidan otning ustida, egarning ikki tarafiga joylanib chalingan. Katta ko's naqqora esa aksariyat miniatyuralarda tuyaning o'rkachiga o'rnatilgan holda tasvirlangan"[3.90-91] deb yozadilar. Hukmdorning ovini tashkil qiladigan va ov qushlarini yetishtirib beradigan qushbegi ham bo'lgan. Bundan tashqari saltanatning turli buxaklarida yashovchi xalqdan xabardor bo'lib turishi uchun maxsus choparlar saqlash va u choparlar eng farosatli va bilimdon kishilar bo'lishi kerakligi ham har bir odil shohning mukammal jamiyatining asosiy mezonlaridan biri bo'lishi kerak. Temurning o'zi ham bunga to'la amal qilgan. "Amr qildimki, mingta tezyurar tuya mingan, mingta ot mingan yelib-yuguruvchi kishini chopqinchi, ming nafar tez yurar piyodani (chopar) tayinlasinlarkim, turli mamlakatlar sarhatlarining xabarlarini qo'shni hukmdorlarining maqsadlarini va niyatlarini bilib, huzurimga kelib xabar qilsinlar, toki biron voqea kor-hol yuz bermasdan burun choralar ilojini qilaylik"[1.117] degan edi Temur. Amir Temurning faoliyatining mazmunini inson, millat va Vatan taqdiri tashkil etganligi sababli, milliy davlatchilik masalasi bosh

mavzu sifatida alohida o'rin egallagan. Bu ko'rsatkichlar, uning faoliyati asosini - ma'naviy va moddiy yaratuvchanlik tashkil etishini ko'rsatadiki, bu fenomenal xususiyat asosan buyuk siymolarda mujassamlashgan bo'ladi. Xullas, Amir Temur va Temuriylar saltanatida boshqaruvni amalga oshiradigan ijtimoiy tarkibni chuqurroq va maxsus o'rganish talab etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI :

1. Темур тузуклари. – Т.: “Фан ва технология”, 2014. 196 б.
2. Каримов С.К. Амир Темур ижтимоий-сиёсий таълимотининг асосий тамойиллари. Ўрта Осиё социологик фикрлари тарихидан (Ўқув қўлланма). – Самарқанд: СамДУ, 261-262-б.
3. Яхшиликков Ж., Аҳадов Ш. Темурийлар маънавияти (Илгариги манбалар ва янги тадқиқотлар асосида). – Т.: “Фан”, 1999.
4. Раматов, Ж. С., & Эрниеъзов, Ў. (2022). ИСЛОМ ДИНИДАГИ ҚАДРИЯТЛАР ВОСИТАСИ АСОСИДА ШАХС МАЪНАВИЯТИНИ ЮКСАЛТИРИШДАГИ АХАМИЯТИ. World scientific research journal, 4(2), 81-90.
5. Харатова, Ш. Х., Назарова, Н. Ж., Абдукаримова, Г. Б., Рахимова, М. И., & Темирова, С. В. (2022). ВОЯГА ЕТМАГАН ЎСМИРЛАР БИЛАН ИШЛАШДА ОИЛА, МАҲАЛЛА, МАКТАБ ҲАМКОРЛИГИ МАСАЛАЛАРИ. Uzbek Scholar Journal, 11, 102-110.